

**LOTIN TILINING TIBBIYOTDAGI O'RNI****Hayrullayeva Mahzumabonu Muzaffarbekovna, student TDSI****Ilmiy raxbar: Sayfullayeva Lola Sagdullayevna*****Toshkent davlat stomatologiya instituti
O'zbekiston, Toshkent***

Annotatsiya: Tibbiyotda lotin an'anaviy ravishda anatomik, klinik va farmatsevtika terminologiyasida qo'llaniladi. Lotin tili-hind yevropa oilasining italiy tillari guruhiga mansub. Lotin tilini bilish butun dunyodagi shifokorlarga uchun qiyinchilikdsiz bir-birini tushunishga imkon beradi.

Lotinlarning poytaxti Rim shahri bo'lgan. Rim saltanati Yunonistonni bosib olganda, bu yerda madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, Rim davlati xalqlari madaniyatida bilsa bo'ladi. Ularning rivojlanganligini biz tibbiyotda ishlatayotgan terminlarimizda ham ko'rishmiz mumkun.

Kalit so'zlar: *lotin tili, tibbiy terminologiya, kasbga oid iboralar, maqol, unifikatsiya.*

Kirish: Tibbiyotda lotin tilidan foydalanish butun dunyo shifokorlari va tibbiy ta'limni unifikatsiya qilish uchun birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Lotin tili anatomiya va farmakologiya sohalarida alohida o'rin tutadi. Inson tanasining barcha a'zolari va qismlari lotinchaga ega ismlar yoki lotinlashtirilgan nomlardan iboratir. Dori-darmonlar nomari ham lotin tilidan olingan. Aal-azqaldan retseptlar lotin tilida va ma'lum qoidalarga muvofiq yo'ziladi, ularni barcha mllat shifokorlari lotinchada tushunishi lozim, asalan, Amerikada yozilgan retseptni Rossiyada ham osongina tushunish mumkinbo'lishi lozim.

Yevropa tibbiyoti "otasi" Buqrot, Klavdiy Galen, Andrey Vezaliy lotin tilida yozilgan.

Lomonosov ko'pgina asarlari ham lotin tilida yozilgan.

Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarini XII asrdayoq lotin tiliga o'girib, qariyb XVI asr oxirigacha Yevropa tibbiyotini o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi.

Asosiy qism: Bugungu kunga kelib esa lotin tilini bilmay turib tibbiyotga kirishni iloji yo'q. Tibbiyot oliygohlarida lotin tilini o'rganish talabalarga doimo yangilanib turadigan tibbiy



terminologiyani shifokorning kelajakdagi mutaxassisligining professional tilini ongli ravishda o'zlashtirish va malakali foydalanishga yo'l ochadi.

Shuning uchun, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida lotin tilini o'rganish zarurligiga shubha yo'q va lotin tilining elementlarini bilish shifokorlar o'z mutaxassisliklarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari va kelajakda biz shifokorlarning kasbiy tilimiz- tibbiyotda malakali foydalanishimiz zarur.

Lotin tili asoslarini o'zlashtirmasdan turib tibbiy talimni o'zlashtirish mumkin emas. Lotin tilini o'rganish tibbiyot mutaxassisliklarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega, chunki u lotin tilidan kelib chiqqan tibbiy atamalarni ongli ravishda o'zlashtirish va tushunishga yordam beradi, u tanishadi va o'z amaliyotida foydalanadi.

Qadim zamonlardan beri shifokorlar orasida shunday maqol bor:

“Invia est in medicina via sine lingua Latina” ya'ni “Tibbiyot yo'lidan lotin tilisiz o'tib bo'lmaydi”. Bu maqol bugungu kunning eng dolzarb haqiqatlaridan biridir.

Lotin tili tibbiyotda an'anaviy ravishda anatomiya va farmakologiya uchun xalqaro terminologiya, shuningdek retseptlar tayyorlashda qo'llaniladi. Lotin tilini bilish turli mamlakatlarda shifokorlar bir birini osongina tushinib olish imkonini beradi.

Lotin tilini tibbiyotda qo'llashning uzoq an'analari butun dunyo shifokorlari va bilimni birlashtirish uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tibbiy terminologiya asosan lotin va uning shakllari asosida qurilgan xalqaro lug'at sohasiga tegishli bo'lganligi sababli, u butun dunyo shifokorlari uchun birdek.

Lotin tilida ham xuddi o'zbek tilimizdey so'z turkumlari mavjud. Ulardan biz ot so'z turkumi bilan tanishib chiqamiz.

Xulosa qilib aytganda, lotin tilini o'rganish, bu boradagi bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirish borasida zamonaviy ta'limning juda dolzarb vazifasi hisoblanadi.